O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 3 - mart 66-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26 fevraldagi 131-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash to`g`risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-fevraldagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi bolalar oromgohi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 65-sonli qarori va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26 fevraldagi 131-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-fevraldagi “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi bolalar oromgohi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 65-sonli qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 26 fevraldagi 131-10-0-Q/22-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yana-da takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-iyuldagi PQ–5188-son qarori 13-bandiga muvofiq:

“O‘zmetkombinat” AJning Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanida joylashgan mazkur jamiyatga qarashli “Yoshlik” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi Prezident ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tasarrufiga beg‘araz o‘tkazilganligi;

kelgusi 10 yil davomida ushbu oromgohning faoliyatini yuritish va saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan ajratiladigan homiylik xayriyalari hisobidan qoplash belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

“O‘zmetkombinat” AJning “Yoshlik” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi mol-mulki negizida Agentlik muassisligidagi “Renessans” sog‘lomlashtirish oromgohi (keyingi o‘rinlarda - Oromgoh) tashkil etilganligi;

Quyidagilar belgilab qo‘yilganligi:

a) Oromgoh davlat muassasasi hisoblanishi, o‘z ustaviga, mustaqil balansiga, shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga, nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtamp va blankalarga ega bo‘lishi;

b) Oromgoh yil davomida faoliyat yuritishi va bunda:

yoshlarning iqtidoridan kelib chiqib, ta’lim sifatini oshirish va individual yondashuvni joriy etish maqsadida har bir guruhda yoshlar soni
20 nafargacha shakllantirilishi;

yoshlarning alohida qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida yetakchi mutaxassislar ishtirokida individual mashg‘ulotlar olib borilishi;

yoshlar uchun umumta’lim dasturlarini qamrab olgan mashg‘ulotlar Oromgohning o‘zida tashkil etilishi;

v) Oromgohga Agentlik tizimidagi mahalliy va xorijiy mutaxassislar jalb etilishi;

g) Oromgohga Agentlik tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qilishi;

d) Oromgohning yillik daromadlar va xarajatlar smetasi Agentlik bilan kelishilgan holda Oromgoh tomonidan tasdiqlanishi, Oromgoh mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat Agentlik tomonidan amalga oshirilishi;

e) yoshlarning startap va innovatsion loyihalarini takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish belgilangan tartibda Innovatsion rivojlanish vazirligining Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab- quvvatlash jamg‘armasi hamda mahalliy va xorijiy investorlar mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi;

qaror bilan Oromgoh faoliyatini moliyalashtirish manbalari belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**